IMPACT FACTOR: 8.2
ISSN: 2181-3337

International scientific journal

# SCIENCE AND INNOVATION

## 2022 №7

HISTORY
JURIDICAL
ARTS
ARCHITECTURE
GEOGRAPHY
GEOLOGY AND MINERALOGY

## International Scientific Journal

# SCIENCE AND INNOVATION

## Series C
## Volume 1 Issue 7
## October 2022

**IMPACT FACTOR: 8.2 (UIF-2022)**
**ISSN: 2181-3337**
**SCIENTISTS.UZ**

**Tashkent 2022**

**ISSN: 2181-3337**
**UIF-2022: 8.2**
**SJIF 2022: 4.277**

**International Scientific Journal SCIENCE AND INNOVATION**. Series C volume 1 issue 7 – 434p.

*The journal presents scientific articles accepted in the C series of the international scientific journal "Science and Innovations", issue 7, 2022.*

*In this scientific journal, in the form of scientific articles, the results of scientific research conducted by professors and teachers of the Republic of Uzbekistan and international higher educational institutions, independent researchers, doctoral students, undergraduates were published. In addition to higher educational institutions, the journal also includes scientific articles by employees working in other research institutes, production organizations and enterprises of our region and republic.*

*The materials of the journal can be used by professors, teachers, independent researchers, doctoral students, undergraduates, students, teachers of lyceums and schools, scientists and everyone who is interested in science.*

*He has certificate No. 1597, received on April 27, 2022 by the Agency for Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan.*

*The journal received a rating of 8.2 according to the Georgian Universal Impact Factor system. This issue of the journal is indexed in the international scientific databases Index Copernicus, OpenAire, ZENODO, Cyberleninka and Google Scholar.*

*All articles were placed in the electronic scientific database of the journal (scientists.uz).*

*Dissertations are officially recognized as articles published in foreign journals included in the list of journals recommended by the HAC for the publication of the main scientific results of dissertations.*

*The foundation:*

*1) Page 3 of the list of scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of dissertations of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent: 2019. - 160 p.*

*2) The conclusion of the HAC working group, presented in the response letter No. 01-07/1368 of 06/13/2022.*

**© Academy of Science and Innovation**

**© Authors**

# TURKISTON O'LKASI MATBAA-NOSHIRLIK TARIXINING O'RGANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

**Sadriddinov Abrorjon Sayfulla o'g'li**
07.00.01 – O'zbekiston tarixi yo'nalishi bo'yicha erkin tadqiqotchi. Namangan shahridagi Prezident maktabi tarix fani o'qituvchisi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.7296623

***Annotatsiya.*** *Bugungi kunda jamiyatimizda sodir bo'layotgan jadal o'zgarishlar va yangilanishlarni chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, har qanday xalqning buyukligi bu – uning o'z o'tmishini, ya'ni o'zining haqqoniy tarixini, qadriyatlarini to'laqonli saqlab qolganligi bilan ham belgilanadi. Dunyo mamlakatlari milliy madaniyatining muhim va ajralmas qismlaridan biri bu – matbaa-noshirchilikning vujudga kelish tarixidir. Turkiston o'lkasidagi dastlabki matbaa o'choqlari Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Buxoro, Xiva, Andijon, Namangan, Farg'ona kabi yirik madaniyat markazlarida vujudga kelgan edi. Turon zaminida yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozimdir. Ushbu tadqiqot ishida "Turkiston o'lkasida matbaa-noshirlik ishining vujudga kelishi"ni o'rganilish tarixi hamda manbashunosligi bo'yicha tahliliy qarashlar taqdim etildi.*

***Kalit so'zlar:*** *matbaachilik, noshirlik, qo'lyozma asarlar, toshbosma asarlar, bosmaxonalar, jadidchilik, O. Portsev, G.Y. Yakovlev, M.V. Kats-Nelson, Y.P. Edelman, O. Abdalov, M. Behbudiy, A. Avloniy, Is'hoqxon Ibrat O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi, "Туркестанские ведомости", "Turkiston viloyati gazeti".*

# НЕКОТОРЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ИСТОРИИ ПЕЧАТИ И ИЗДАТЕЛЬСТВА В ТУРКЕСТАНЕ

***Аннотация***. *Крайне важно понимать, что сегодня в нашем обществе происходят стремительные изменения и реформы. Ведь величие любой нации определяется тем, что она полностью сохранила свое прошлое, то есть свою подлинную историю и ценности. Одной из важных и неотъемлемых частей национальной культуры стран мира является история возникновения книгопечатания и издательского дела. Первые типографии в Туркестане были установлены в таких крупных культурных центрах, как Ташкент, Самарканд, Коканд, Бухара, Хива, Андижан, Наманган, Фергана. Следует с гордостью отметить, что образцовая жизнь и деятельность наших великих ученых и мыслителей, живших на земле Туран, а также беспримерные научные и творческие открытия и сегодня поражают людей всего мира. В данной исследовательской работе представлены аналитические взгляды на историю и источниковедение исследования «Изобретение книгопечатания в Туркестане».*

***Ключевые слова***: *полиграфия, издательство, рукописные произведения, литографские работы, типографии, современное искусство, О. Порцев, Г.Ю. Яковлев, М.В. Кац-Нельсон, Ю.П. Эдельман, О. Абдалов, М. Бехбуди, А. Авлони, Исхакхан Ибрат, Центральный государственный архив Республики Узбекистан, «Туркестанские ведомости», «Туркестанская областная газета».*

# SOME STUDIES ON THE HISTORY OF PRINTING AND PUBLISHING IN TURKESTAN

***Abstract.*** *It is crucial to comprehend that the rapid changes and reforms are taking place in our society today. After all, the greatness of any nation is determined by the fact that it has fully*

*preserved its past, that is, its true history and values. One of the important and integral parts of the national culture of the countries of the world is the history of the emergence of printing and publishing. The first printing presses in Turkestan were established in such large cultural centers such as Tashkent, Samarkand, Kokand, Bukhara, Khiva, Andijan, Namangan, and Fergana. It should be noted with pride that the exemplary life and activity of our great scholars and thinkers who lived in the land of Turan, as well as the unparalleled scientific and creative discoveries still amaze the people of the world today. Analytical views on the history and source science of the study of "Invention of printing and publishing in Turkestan" were presented in this research work.*

***Key words:*** *printing, publishing, manuscript works, lithographic works, printing houses, modern art, O. Portsev, G.Y. Yakovlev, M.V. Katz-Nelson, Y.P. Edelman, O. Abdalov, M. Behbudi, A. Avloni, Ishaqkhan Ibrat, Central State Archive of the Republic of Uzbekistan, "Turkestanskie vedomosti", "Turkestan region gazette".*

**KIRISH**

Tarixning turli sinovli davrlaridan omon qolgan eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan qo’lyozma asarlar bizning beqiyos ma’naviy boyligimiz va iftixorimizdir. Ota-bobolarimizning asrlar davomida to’plagan hayotiy tajribalari, diniy-axloqiy, ilmiy qarashlarini o’zida mujassam etgan bu nodir qo’lyozmalarni jiddiy o’rganish davri keldi. Har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma’naviyatning shakllantirilishiga o’ziga xos ta’sir o’tkazadi.

Turkiston matbaachiligi tarixining xususiyati shundaki, bu hududda matbaachilik Yevropa va Osiyodagi ko’p mamlakatlardagiga nisbatan birmuncha kechroq tashkil topdi va taraqqiy etdi. O’zbekiston matbaachiligi taraqqiyotining 1917-yilgacha bo’lgan davri Turkistonda mustamlaka rus hukumati hukmronligi davrida, so’ng 1991-yilgacha bo’lgan davri sovet hokimiyati tuzumi sharoitida kechdi. Hozirga qadar tadqiqotchilar tomonidan matbaachilik tarixini yorituvchi talaygina maqola, risola va kitoblar yaratilgan. XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragi davomida Turkistonda ilk matbaachilik nashrlariga rus mustamlakachilari tomonidan asos solingan bo’lsa-da, keyinchalik o’lkada mahalliy matbaachilik ham taraqqiy eta boshladi. Albatta, ularning tashkilotchilari va mualliflari milliy ziyolilarimiz edi.

**TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Turkiston o’lkasida matbaachilikning vujudga kelish jarayonlarini tadqiq etish mobaynida noshirchilik sohasi va noshirlar faoliyatini shartli ravishda ikki guruhga ajratib o’rganish mumkin. Birinchi guruhga kiruvchi noshirlar (S.I. Laxtin, V. M. Il’in, O. Portsev, P. D. Nemtimov, G. Y. Yakovlev, A. L. Kirsner, M. V. Kats-Nelson[1], Y. P. Edelman[2], P. G. Petrov, S. G. Groman, P. A. Komarov, Vilner, Sh. Grayevskiy, Fridman, Minakov, T. I. Kutilo[3]) matbaachilikni asosiy kasb qilib olmagan, lekin, mashhur mutafakkirlarning asarlarini chop qilish bilan shug’ullangan shaxslar. Ulardan ko’pchiligi o’lkaga daromad topish maqsadida kelgan shaxslar edi. Ikkinchi guruhga kiruvchi noshirlar (G’. H. Orifjonov[4], O. Abdalov, M. Behbudiy, A. Avloniy, Ibrat, Sh. Shoahmedov kabi ma’rifatparvarlar) esa o’lka xalqlariga tarixiy-ma’naviy madaniyatni qaytarish, yetuk allomalarimizning asarlarini aholi orasida keng yoyish, XIX asr ikkinchi yarmidan ochila boshlangan yangi usul maktablari uchun darsliklar va qo’llanmalar chop etish bilan shug’ullangan jadid namoyondalari sanaladi. Shuning uchun ham o’lka xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida matbaa-noshirchilikning tutgan o’rni va ahamiyatini yoritish,

bu soha tarixining yurtimizdagi taraqqiyotining o'ziga xos tomonlarini o'rganish, bizningcha, muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari o'lkaning ma'rifatparvar jadidlari tomonidan asos solingan milliy matbaalar, ularning ijodiy hamkorligida faoliyat ko'rsatdi. Sovet tuzumi davrida esa jadidchilik harakatining o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ahamiyati tarixiy haqiqatga zid ravishda buzib talqin qilindi. Shuning uchun bugungi kunda Turkiston matbaachiligi tarixini xolisona, tarixiy izchillik nuqtai nazaridan o'rganish juda ham muhim va biz tarixchilar oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**TADQIQOT NATIJALARI**

Ushbu tadqiqot ishida asosiy manbalar sifatida – mustaqillik yillarida yozilgan ilmiy maqolalar, asarlar, ilmiy tadqiqot ishlari hamda davriy matbuot materiallari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi manbalari asos bo'lib xizmat qildi. Xususan, "Туркестанские ведомости"[5] gazetasi va "Turkiston viloyati gazeti"[6]da berilgan ma'lumotlardan hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivining I. 1-fond[7], I. 19-fond[8], R. 27-fond[9], R. 36-fond[10] materiallaridan foydalanildi. Turkistonda matbaachilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixiga oid manbalarni biz shartli ravishda bir necha guruhlarga bo'lib o'rganishimiz mumkin:

1) Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davriga oid tadqiqotlar;
2) Sovetlar hukmronligi yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar;
3) Mustaqillik yillaridan keyin amalga oshirilgan hamda davom etayotgan tadqiqotlar;
4) Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar.

Birinchi guruhga oid dastlabki maqola va asarlar rus mustamlakachiligi va sovet tuzumi yillarida nashr qilingan bo'lib, ularning ko'p qismi bizgacha yetib kelmagan. Ammo mazkur davr matbaachiligiga oid muhim ma'lumotlar E. K. Betger[11], G. H. Chabrov[12] kabi tadqiqotchilar ilmiy ishlarida bayon etilgan.

Ikkinchi guruhga, sovetlar davrida yaratilgan adabiyotlarni kiritishimiz mumkin. Bu adabiyotlarda asosan Turkistondagi matbaachilik korxonalarining ochilishi va ularning noshirlik faoliyati yoritilgan bo'lib, ular asosan Ziyo Said[13], N. F. Simonov[14], T. Ernazarov va A. Akbarovlar[15], T. Ernazarov[16], P. Hamdamov[17], M. I. Rustamov[18], Z. Yuldashev[19], F. N. Rojinskaya[20], A. Boboxonov[21]larning maqola va asarlarida o'z ifodasini topgan.

Uchinchi guruhga, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng yaratilgan tadqiqotlarni kiritish mumkin. Mustaqillik yillari davomida T. Pidayev[22], B. Do'stqorayev[23], A. Kattaboyev[24], A. Boboxonov[25], Z. Esenboyev[26], B. Qosimov[27], K. Rahmonov[28], A. Mirzorahimov[29], A. Abduazizova[30], Z. Abdurashidov[31], L. Xolnazarova[32], S. Shodmonova[33], A. Rasulov[34], A. Isoqboyev[35], D. Nasriddinova[36] va boshqalar kitob, risola, dissertatsiya va maqolalar yozdilar.

O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida matbaachilik vujudga kelishi va uning tarixi o'rganishda T. Ernazarov, P. Hamdamov, M. Rustamov, Z. Yuldashev, A. Boboxonov, A. Mirzorahimov kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari salmoqli hisoblanadi.

Turkiston matbuoti tarixiga yangi manbalar va yangicha yondashuv asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshidagi O'zbekistonning yangi tarixi markazi olimlari tomonidan bir necha asarlar yaratildi. Xususan, T. Pidaev, N. A. Abduazizova, Z. Esenboev kabi olimlarning asarlari shular jumlasidandir.

**MUHOKAMA**

Turkiston matbuoti tarixini o'rganishda olima N. A. Abduazizovaning xizmatlari katta. Uning matbuot tarixiga oid yuzdan ortiq maqolalari, o'ndan ortiq kitoblari chop etildi. Olima o'z ilmiy tadqiqotlarida ilk o'zbek noshirlik ishlarining paydo bo'lishi, genezisi va shakllanish bosqichlari, milliy matbuotning yuzaga kelishi, gazeta va jurnal nashr etishning sivilizatsiyaviy hodisa sifatidagi mohiyatini, sovet totalitarizmi sharoitida o'zbek matbuotining tajribalari va nuqsonlarini yaxlit holda ochib bergan.

Tadqiqotchilar A. Rasulov hamda A. Isoqboyev O'rta Osiyo xalqlarining qardosh xalqlar bilan mazkur davrdagi nafaqat, ijtimoiy-siyosiy, balki madaniy aloqalari tarixiga to'xtalib o'tganlar. Ularning ilmiy izlanishlarida tatar ma'rifatparvarlarining Turkiston o'lkasidagi madaniy faoliyatlari qatori, matbaa-noshirchilik ishlariga ham to'xtalib o'tiladi.

Tadqiqotchi D. Nasriddinova esa o'lkadagi milliy xotin-qizlar maorifi masalasida tatar ma'rifatparvar ayollarining olib borgan samarali ishlari to'g'risida to'xtalib o'tgan. Farg'ona vodiysi, xususan, Namangan viloyati tarixida matbaachilikning vujudga kelishiga doir ayrim ma'lumotlar Y. Samadov[37], K. Vohidova[38], I. Yusupov va E. Mirzavaliyev[39], D. B. Alinazarova[40], I. Yo'ldoshev, U. Dolimov[41] va R. Ummatov[42]larning tadqiqotlarida ham berilgan.

Bundan tashqari xorij tadqiqotchilarning, xususan, A. Yazberdiyev[43], R. P. Ovsepyan[44], A. Ribolova[45], S. Mustafayeva[46], N. U. Gafarov[47], E. S. Lujanskaya[48]larning ilmiy izlanishlarida ham Turkiston o'lkasidagi matbaalar tarixiga urg'u berib o'tilgan.

**XULOSA**

Tadqiqotning asosiy maqsadi Turkistonda matbaachilikning vujudga kelishi va rivojlanishi, shakllanishidagi o'ziga xos xususiyatlar, o'rganilish darajasi va manbashunosligi haqida batafsilroq to'xtalib, matbaachilik tarixiga chuqurroq kirib borish, o'sha davr matbaachiligining millat taraqqiyoti tarixidagi munosib o'rni haqida muayyan tasavvur hosil qilish va bu masalani xolisona, tarixiylik nuqtai nazaridan ochib berishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish o'z navbatida davomli tadqiqotlar uchun quyidagi vazifalarni belgilab beradi:

- Turkistonda matbaachilikning vujudga kelish tarixini o'rganish;
- Turkistonda mustamlaka ma'muriyatining matbaachilik ishlarini yo'lga qo'yishdan ko'zlagan asosiy maqsad va vazifalarini ochib berish;
- Turkiston o'lkasida ilk davriy nashrlarning paydo bo'lishi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, tahlil qilish;
- Turkistonda ruslar va mahalliy millat vakillarining xususiy bosmaxonalarini paydo bo'lishi va ularning asosiy xususiyatlari haqida fikr yuritish;
- XX asr boshlarida vujudga kelgan o'zbek tilidagi dastlabki mustaqil milliy nashrlar va ularni tashkil etilishida milliy ziyolilar – jadidlarning tutgan o'rni, ularning amaliy faoliyatlarini tadqiq etish;
- 1917-yil inqiloblaridan keyingi matbaalar faoliyatiga to'xtalib, ularni ish yuritishidagi muammolar va kamchiliklar, bu muammo hamda kamchiliklarni bartaraf etish uchun qilingan amaliy chora-tadbirlar haqida xolisona to'xtalib o'tish;
- Turkiston o'lkasidagi matbaa korxonalarida kadrlar masalasi va bu masalaning yechimlari haqida fikr yuritish;

- Turkistonda sovetlar hokimiyatining qaror topishi davridagi matbaachilik va ularning faoliyati haqida to'xtalib o'tish;
- tadqiqot natijalari bo'yicha zarur xulosalar berish.

Tadqiqot ishini yoritishda tarixiy-qiyosiy usullardan foydalanilgan holda rus imperiyasi davri matbaachiligi, milliy jadid matbaachiligi hamda sovet davri matbaachiligi kompleks tarzda tadqiq etilib zaruriy xulosalar chiqarildi.

Xulosa o'rnida, hozirga qadar matbaachilik tarixi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, bizningcha bu mavzuning ochilmagan jihatlari hali mavjud. Turkiston matbaachiligi va uning o'rganilish tarixi haqidagi fikrlarni yakunlar ekanmiz, quyidagi takliflarni keltirib o'tishni joiz deb topdik:

– o'lkadagi xususiy bosmaxonalar va ularning faoliyatiga chuqurroq nazar solish, sababi mazkur bosmaxonalar Turkistondagi matbaalarning salmoqli qismini tashkil etgan;

– mazkur mavzuni Respublikamizning viloyatlari bo'yicha, masalan, Xorazm vohasi, Farg'ona vodiysi va boshqalar misolida, yaxlit tadqiq etish. Chunki butun o'lka hududlari bo'ylab keng quloch yoygan madaniy jarayonlar qatorida matbaachilik sohasi ham o'zining muhim o'rniga ega bo'ldi.

Bu mavzuning ochilmagan jihatlarini keyingi ilmiy tadqiqotlarda davom ettirish, bizningcha muhim ahamiyatga kasb etadi.

**REFERENCES**

1. O'zR MDA, I. 19-fond, 1-ro'yhat, 28921-ish, 3-varaq va orqasi.
2. Бобохонов А. Ўзбек матбааси тарихидан. – Т., 1979. – Б. 183-184.
3. Бобохонов А. Ҳ. Асрдан ошган зиё масканлари (Тарихий очерклар). – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 74.
4. Махкамова Н. Социалъно нравственные и духовные процессы в Узбекистанском обществе конца XIX – начала XX вв // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Т., 2001. – № 2 (14). – Б. 87.
5. Туркестанские ведемости. 1876 йил 13 март. – № 13.; Туркестанский ведомости. 1902 й 19 май. – № 40. – Б. 236.
6. Туркистон вилоятининг газети. – 1891. – № 19.; Туркистон вилоятининг газети. – 1901. – № 3.; Туркистон вилоятининг газети. – 1901. – № 7.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi (O'zR MDA), I. 1-fond, 31-ro'yhat, 540-ish, 81-82-varaqlar.; 27-varaq.; 100-varaq.; 101-varaq.
8. O'zR MDA, I. 19-fond, 1-ro'yhat, 28921-ish, 3-varaq va orqasi.; 9-varaq.; 21-varaq va orqasi.; 22-varaq.; 29-varaq va orqasi.
9. O'zR MDA, R. 27-fond, 1-ro'yhat, 6-ish, 40-varaq.; 42-varaq.
10. O'zR MDA, R. 36-fond, 1-ro'yhat, 12-ish, 216-varaq.
11. Бетгер Е. К. Редкие книги // Правда Востока. 1945. 25 июня. – № 145.; O'sha muallif. Из истории книжного дела в Ўзбекистане // Известия АН УзССР. – Ташкент, 1951. – № 2. – С. 75 – 78.
12. Чабров Г. Н. Первые литографированные издания произведений Алишера Навои в Средней Азии // Звезда Востока. – Ташкент, 1948. – № 3. – С. 8 – 9.; O'sha muallif. Из истории полиграфии и издательства литературы на местных языках в дореволюционном Туркестане (1868-1917) // Труды САГУ. Вып. 57. Кн. 7. – Ташкент,

1954. – С. 79 – 80.; O'sha muallif. Художественное оформление туркестанской литографированной книги (1880-1917) // Труды АН ТаджССР. Вып. 2. Кн. 29. – Сталинабад, 1960. – С. 205 – 224.; O'sha muallif. У истоков ўзбекской полиграфии (Хивинская придворная литография 1874-1910 гг.) / Книга. Исследования и материалы. – М., 1961. – С. 317 – 329.

13. Саид Зиё. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар (1870-1927). – Тошкент-Самарқанд: Ўздавнашр, 1927. – 180 б. O'sha muallif. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 116 б.
14. Симонов Н. Ф. Туркистонда большевистик матбуот ( 1902-1907 йй.). – Т.: ЎзФан нашриёти, 1941. – 58 с.
15. Эрназаров Т. Э., Акбаров А. И. История печати Туркестана (1870-1925 гг.). – Ташкент: Укитувчи, 1976. – 288 с.
16. Эрназаров Т. Туркистонда вақтли матбуот (1870-1924). – Т., 1959. – 258 б.
17. Хамдамов П. Возникновение и развитие советского книгоиздательства в Средней Азии. – Т, 1966. – 27 с.
18. Рустамов М. И. Ўзбек китоби. – Т.: Ўзбекистон, 1968. – 160 с.; O'sha muallif. История книги и книжного дела в Средней Азии (вторая половина XIX в. – первая четверть XX в.): Автореф. дис. ... канд. истор. наук. – Т., 1968. – 32 с.
19. Юлдашев З. Развитие книгоиздательского дела в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1969. – 192 с.; O'sha muallif. Из истории развития книгоиздательского дела в Узбекистане (1958-1967 гг.): Автореф. дис. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1969. – 24 с.
20. Рожинская Ф. Н. Из истории развития книгоиздательского дела в Узбекистане (1918-1937 гг.): Автореф. дис. ... канд. истор .наук. – Ташкент: АН УзССР. Ин-т истории и археологии, 1969. – 24 с.
21. Бобохонов А. Матбаа байрокдорлари. – Т.: Ўзбекистон, 1974. – 215 б.; O'sha muallif. Асрга тенг матбаа. – Т., 1976. – 32 б.; O'sha muallif. Ўзбек матбааси тарихидан. – Т., 1979. – 196 б. O'sha muallif. Становление и развитие полиграфической промышленности и формирование кадров – полиграфистов в Узбекистане (1917-1937): Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Т., 1984. – 20 с.; O'sha muallif. Полиграфия Узбекистана (1917-1940). – Т.: Меҳнат, 1986. – 224 с.
22. Пидаев Т., Дўстқораев Б. "Тараққий" – илк ўзбек миллий газетаси // Халқ сўзи. 1993. 14 июнь. O'sha muallif. Матбуот миллат чироғи. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. – 80 б.
23. Do'stqorayev B. Cho'lpon: gazeta yettinchi davlat // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2004. 42-son.
24. Каттабоев А. Ўзбекистон китоб нашри тарихига доир // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Т., 1998. – № 2. – Б. 43 – 45.
25. Бобохонов А. Уч асрга юзланиб // Миллий тикланиш. 2000. 24 июлъ.; O'sha muallif. Асрдан ошган зиё масканлари (Тарихий очерклар). – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 260 б.
26. Эсенбоев З. Матбуотга бахшида умр. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 158 б.

27. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. – Т.: Маънавият, 2002. – 396 б.
28. Раҳмонов К. Ж. Бухоро Республикасининг матбуот органи // Жамият ва бошқарув. – Т., 2004. – № 2. – Б. 44 – 45. O'sha muallif. "Бухоро ахбороти" ва "Озод Бухоро" газеталари – Бухоро Халқ Совет еспубликаси тарихини ўрганиш манбаси: Тарих фан. номз. ... дисс. – Т., 2008. – 195 б.
29. Мирзораҳимов А. Тошбосма тарихи: чалкашликми ёки хато? // Tafakkur. – Т., 2007. – № 2. – Б. 92. O'sha muallif. Ўрта Осиёда тошбосма китоб тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фан. номз. ... дисс. – Т., 2009. – 140 б.
30. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917) / Тузувчи Н. А. Абдуазизова. – Т.: Академия, 2000. – 86 б.
31. Абдуазизова Н. Ўзбекистон оммавий ахборот воситалари (Қисқача маълумотнома). – Т.: Академия, 2003. – 32 б.; O'sha muallif. Маънавият кўзгуси // Жамият ва бошқарув. – Т., 2007. – № 3. – Б. 41 – 43. O'sha muallif. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд. – Т.: Шарқ, 2008. – 381 б.
32. Абдирашидов З. Аннотированная библиография Туркестанских материалов в газете "Таржуман" // Central Eurasian Research Series No.5. – Tokyo, 2011. – 234 с.; O'sha muallif. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние. – Ташкент, 2011. – 384 с.
33. Холназарова Л. С. История книжного дела и библиотековедения в Бухарском эмирате в XIX – начале XX в.: Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Т., 2011. – 28 с.
34. Шодмонова С. 1917 йилда Туркистонда ижтимоий-иқтисодий аҳволнинг даврий матбуотдаги мониторинги // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Т., 2006. – № 1 (33). – Б. 173 – 177.; O'sha muallif. Social views on state system in the national press of Turkiston // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Т., 2007. – № 1 (37). – В. 146 – 149.; O'sha muallif. Вопросы социално-экономического и културного положения Туркестана на страницах периодической печати (1870-1917 гг.): Автореф. дисс. ...докт. истор. наук. – Т., 2011. – 61 с. O'sha muallif. Некоторые взгляды на жизнь женщин-мусульманок в Туркестане в конце XIX – начале XX в. (на основе материалов периодической печати) // Мир ислама: История, общество, культура. – М., 2012. – № 1 – 2 (8 – 9). – С. 85 – 91.
35. Расулов А. Туркистон маданий ҳаётида татарлар // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Т., 2004. – № 1 (25). – В. 131.; O'sha muallif. Туркистон ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар. – Т.: Университет, 2005. – 200 б.; Rasulov A., Isoqboyev A. Turkiston va Rossiya munosabatlari tarixi (O'quv qo'llanma). I qism. – Namangan, 2011. – 128 b.
36. Исоқбоев А. А. Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида татар-бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фан. номз. ... автореф. дисс. – Т., 2008. – 29 б.
37. Насриддинова Д. Миллий хотин-қизлар маорифи масаласида татар аёллари // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Т., 2009. – № 1 (45). – Б. 114 – 117.
38. Самадов Ю. Мавлоно Ибрат ворислари (Наманган вилоят босмахонаси тарихидан лавҳалар) / Масъул муҳаррир А. Жаббор. – Наманган, 1999. – 41 б.

39. Воҳидова К. А. Исҳоқхон Ибрат // Фан ва турмуш. – 1995. – № 4. – Б. 26 – 27.; O'sha muallif. Исхакхан Жунайдуллаходжа Ибрат и его научно – исто-рическое наследие: Автореф. дисс. … канд. истор. наук. – Т., 2002. – 25 с.
40. Юсупов И. , Мирзаалиев Э. Наманган шаҳри тарихидан лавҳалар. – Наманган, 2010. – 112 б.
41. Алиназарова Д. Б. Инновации в изучении истории периодической печати и типографской работи в Ферганской долине // Фарғона водийси тарихи муаммолари. Республика илмий анжумани материаллари. – Наманган, 2012. – Б. 297 – 299.
42. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Т.: Шарқ, 1994. – 144 б.
43. Йўлдошев И., Умматов Р. Ибрат изларидан (Тарихий қўлланма). – Наманган, 2014. – 40 б.
44. Язбердиев А. Книжное дело в Средней Азии и Туркменистане с V в до н. э. по 1917 год: Дисс. … истор. наук. – Ашгабад, 1993. – 62 с.
45. Овсепян Р. П. История новейшей отечественной журналистики (февралъ 1917 – начало 90-х годов). Учебное пособие. – Москва, 1996. – 208 с.; O'sha muallif. История новейшей отечественной журналистики (февралъ 1917 – 90-е гг.). Учебное пособие. – Москва: Изд-во МГУ, 1999. – 304 б.
46. Рыболова Е. А. Зарождение рекламы в отечественных периодических изданиях // Журналистика и медиаобразование – 2007. Сборник трудов II Международной научно-практической конференции (1-3 октября 2007 года). Том II. – Белгород, 2007. – С. 19 – 21.
47. Мустафаева С. Из истории взаимосвязей народов Азарбайджана и Туркестана в боръбе против гнета Российской империи (конец XIX – начало XX вв.). – Баку, 2009. – 168 с.
48. Гафаров Н. У. Джадидизм в Средней Азии в конце XIX – начале XX вв.: Автореф. дисс. ... докт. истор. наук. – Душанбе, 2013. – 46 б.
49. Лужанская Е. С. Исторический анализ газетной рекламы в начале XX века на территории Кыргысзтана // Вестник КРСУ. 2014. Том 14. – № 3. – С. 49 – 52.

## Mundarija

| | |
|---|---|
| **Karimova Inobat, Xudayqo'lova Madina, Abduhalilov Abdumutal, Muxammadov Tuyg'un,** GEODEZIYA VA KARTAGRAFIYA SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI | 7 |
| **Ataboyeva Shohida Jurayevna ,** YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA FOLKLOR SAN'ATINING O'RNI | 10 |
| **Нигора Эрматова ,** ФАРҒОНА ТОШКЕНТ МАҚОМ ЙЎЛЛАРИДА ЧОРГОҲЛАР | 14 |
| **Odilova Markhabo Jorayevna, Omonova Kumushkhan daughter of Gofur,** TOURISM FACILITIES OF BUKHARA REGION | 26 |
| **Юсупова Фарингиз Уктам қизи,** ТЕЛЕ-ТИББИЁТ ҲИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШДАГИ ҲАЛҚАРО ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАР | 31 |
| **Иброхимова Гулшаной,** ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСИҚИЙ ОНГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ | 38 |
| **Xamdamova Shirin Mirzayuldashevna, Dilmurodov Dilmurod Dilshodjon o'g'li, Imamov Javoxir Fayozovich,** O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO TASHKILOTLAR TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN IJTIMOIY-IQTISODIY VA INSON HUQUQLARI SOHALARIGA TAALLUQLI REYTINGLARDAGI O'RNINI YAXSHILASH | 42 |
| **Йўлдошева Муслима Маъмуровна,** ҚЎҚОН ХОНЛИГИ МАЛИКАЛАРИ | 47 |
| **Мукаррамов Дилшод Қосимович,** ТОШКЕНТ ЕПАРХИЯСИГА БОШЧИЛИК ҚИЛГАН РУҲОНИЙЛАР ФАОЛИЯТИ ТАҲЛИЛИ | 52 |
| **Сиддиқов Илёсжон Бахромович,** АЖДОДЛАР МЕРОСИДА ИЛМ ВА ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БОРАСИДАГИ ТЕОЛОГИК ВА ГНОСЕОЛОГИК ҚАРАШЛАР ТАҲЛИЛИ | 60 |
| **Oybek Karimov,** YANGI O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR MEDIAMADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULARI | 69 |
| **Улуғбек Рахмонов, Абдусалом Солиев,** ТОМОША САНЪАТИДА ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ | 76 |
| **Jo'rayeva Sanobarxon Azamjonovna,** O'ZBEK MUSIQASINING RIVOJLANISH TARIXI | 80 |
| **Набиев Акрамжон Ботиржонович, Ходжаев Абдугани Атамирзаевич,** ФАВКУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДА ЭВАКУАЦИИ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ | 83 |
| **Mansurbekova Feruza Gayratovna,** VOKAL KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI | 87 |
| **Дилнозахон Обиджановна Абдурахмонова,** ЧОЛҒУАНСАМБЛЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ | 93 |
| **Исақов Улуғбек Тўхтасинович,** ЎЗБЕК МУСИҚА МАДАНИЯТИ РИВОЖИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ ОМИЛЛАРИГА ДОИР | 101 |
| **Имямин Қирғизов, Имомова Одинахон,** ЁШ АВЛОДНИНГ МАЪНАВИЙ –АХЛОҚИЙ КАМОЛОТИДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК РАҲИМАХОНИМ МАЗОХИДОВА ТИМСОЛИДА САНЪАТКОР ХОТИРАСИ | 108 |
| **Himmatova Nodira Normamatovna,** GENDER EQUALITY IN UZBEKISTAN. | 118 |
| **Nozima Ulug'ova Bahtiyorovna,** DRAMATURGIYADA KONFLIKT ATAMASI VA UNING AHAMIYATI | 121 |
| **G'aniyev Farrux Taxirjanovich.,** DINIY EKSTERIMIZM BILAN BOG'LIQ BO'LGAN QONUNBUZARLIKLARNING PROFLAKTIKASI | 125 |
| **Nosirbekov Kozimbek Sunnatbek o'g'li,** ESTABLISHING THE FOUNDATION OF A NEW RENAISSANCE - THE DEVELOPMENT STRATEGY OF NEW UZBEKISTAN | 129 |
| **Toxirjon Oltmishev,** TASVIRIY SAN'ATDA GRIZAYLDA ISHLASH METODI | 135 |
| **Shokarimov O'.I.,** O'ZBEKISTONDA XOR IJROCHILIGINING SHAKLLANISHI | 140 |
| **Tojiyev Umid Toxirovich,** MUDDATLI HARBIY XIZMATCHILARNI HARBIY XIZMATGA ADAPTATSIYA JARAYONI TUSHUNCHASI HAMDA UNING ILMIY NAZARIY TAHLILI | 146 |
| **ХАМИДОВ Х.,** «ПУТИ РАЗВИТИЯ ИНИЦИАТИВНОГО БЮДЖЕТИРОВАНИЯ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ ДОВЕРИЯ МЕЖДУ ГРАЖДАНАМИ И ГОСУДАРСТВОМ» | 153 |
| **Исоқов Абдурашид Қутбиддинович,** ТАБИИЙ ХУСУСИЯТЛИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДА АҲОЛИНИ ВА ХУДУДЛАРНИ ХАБАРДОР ҚИЛИШ ВА МУҲАНДИСЛИК МУҲОФАЗА ҚИЛИШ УСУЛЛАРИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. СЕЙСМИК ХАВФСИЗЛИКНИ ТАМИНЛАШ АСОСЛАРИ | 159 |
| **Хонимқулов Анвар Раҳимқулович,** ЧАҚИРИҚҚАЧА ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ ЙЎНАЛТАЛАБАЛАРИДА ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ ТУЗИЛИШИ ВА МАЗМУНИ | 166 |
| **Umarov Bekzod Baxtiyorjon o'g'li, Axmadov Qosimjon Furqat o'g'li, Asiydinova Mavludaoy Nurmuxamat qizi,** UMUMSAYYORAVIY EKOLOGIK MUAMMOLARLARNING YUZAGA KELISH SABABLARI | 171 |
| **A.Ajabov, R.Turniyazov, K.Qayumova, F.Omonova,** NEPTUNORTI OB'EKTLARI. TADQIQOTLAR VA XULOSALAR | 175 |
| **Omonova Feruzaxon, S.Mahmudova,** MUSIQA SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI VA UNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI | 179 |
| **Sadriddinov Abrorjon Sayfulla o'g'li,** TURKISTON O'LKASI MATBAA-NOSHIRLIK TARIXINING O'RGANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR | 188 |
| **Abduxalilov Jamshid Xurramovich,** O'ZBEK ESTRADA XONANDALIK YO'NALISHIDA ETNOJAZ TUSHUNCHALARIGA DOIR | 196 |
| **Juramirzayev Abrormirza Anvarjon o'g'li, O'rinboyeva Mo'tabarxon Anvarjon qizi , Abduqodirova Donoxon Abdulhakim qizi, Maxmudov Ismoiljon Isroilovich,** MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEK MUSIQASI ME'ROSIDA BASTAKORLIK IJODIYOTINING O'RNI | 202 |
| **Рахмонова М.Х. ,** МИЛЛИЙ МАРОСИМЛАРГА ҚАДИМИЙ ДИНИЙ ЭЪТИҚОДЛАР ТАЪСИРИ | 206 |
| **Qunduz Rozimova,** SEVERAL CRIMES IN THE CRIMINAL LAW OF UZBEKISTAN | 212 |
| **Mustafayeva Nafosat Mirzayor qizi,** INTIZOMIY JAZOLARNI QO'LLANILISHI VA HUQUQIY OQIBATLARI | 219 |
| **Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li, Dadaxanov Farrux ,** STATE OF HEAT CONDUCTIVITY OF WALLS OF RESIDENTIAL BUILDINGS | 223 |
| **Юлдуз Гайбуллаева,** ЎЗБЕКИСТОНДА ХОТИН-ҚИЗЛАР КИЙИМЛАРИ (1960-1970 ЙИЛЛАР): МОДА, ТРАНСФОРМАЦИЯ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ | 227 |
| **Zakirov Nodir Baxtiyorovich,** DOIRA CHOLG'USIDA SOZGARLIK SAN'ATI AN'ANALARI | 233 |
| **O'rishov Umidjon Shovkatjon o'g'li,** ESTRADA JAZZ MUSIQASI TARAQQIYOTIDA TRUBA CHOLG'USING AHAMIYATI | 237 |
| **Juraev Ilhom Bahriddin o'g'li,** HORSE-RELATED TRADITIONS IN THE MIRZACHUL OASIS IN THE XX-EARLY XXI CENTURIES | 244 |
| **Eshmo'minov Bekzod Jo'ra o'g'li,** SURXONDAYONING QADIMIY JOYLARI TARIXI HAQIDA | 247 |

| | |
|---|---|
| **Khurshid Ashrapovich Mahmudov,** SOME ASPECTS OF THE LEGAL REGULATION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN | 251 |
| **Юлдашев Иқболжон Рахимович,** МЕҲНАТ ШАРТНОМАСИНИ ЎЗГАРТИРИШНИ РАСМИЙЛАШТИРИШНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ | 255 |
| **Ergashev Alijon Abdullayevich,** XORIJIY DAVLATLARDA MUSIQA TARBIYASI | 262 |
| **Sarvar Saidov Faxriddin o'g'li,** ZAMONAVIY DUNYODA ZAMONAVIY FUQAROLIK JAMIYATI | 266 |
| **Sharipov Karimjon Dilshodbek o'g'li, Xidoyatillayeva Zuhraxon Bahodir qizi,** YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA FOLKLOR SAN'ATINING O'RNI | 269 |
| **Жураев Жавохир Улугбекович,** АКТУЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗРЕШЕНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ТРУДОВЫХ СПОРОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН | 273 |
| **Раджапова Лола Нураддиновна,** ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯСИНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТАЛАР | 278 |
| **Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li ,** FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGINING FAVQULODDA VAZIYATLARDA HARAKAT QILISH VA BOSHQARISH MILLIY MARKAZI MANSABDOR SHAXSLARI FAOLIYATIDAGI MUAMMOLI MASALALARNI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH MODELI | 286 |
| **Машарипов Тахир Эгамбердиевич,** КОРРУПЦИЯ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ БЎЙИЧА ЎТКАЗИЛАДИГАН ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ | 295 |
| **Khakberdiev Aziz,** THE PROCESS OF TERMINATION AN EMPLOYMENT CONTRACT WITH AN EMPLOYEE OF A FOREIGN EMBASSY | 303 |
| **Shokarimov O'ktamjon Ibragim o'g'li,** O'ZBEKISTONDA XOR SAN'ATINING RIVOJLANISHI | 307 |
| **Shokarimov O'ktamjon Ibragim o'g'li,** O'ZBEKISTONDA XOR SAN'ATINING DAVRIY BOSQICHLARI | 310 |
| **Shokarimov O'ktamjon Ibragim o'g'li,** KOMPOZITOR BOLALARGA | 315 |
| **Shokarimov O'ktamjon Ibragim o'g'li,** "AVESTO" KITOBIDA XOR IJROCHILIGIGA OID AYRIM MA'LUMOTLAR | 318 |
| **Shokarimov O'ktamjon Ibragim o'g'li,** O'ZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODIDA BOLALAR QO'SHIQLARI | 322 |
| **Xalmatov Umarbek Muminjonovich,** ICHKI ISHLAR HODIMLARINING STRESS VA STRESSGA CHIDAMLILIGI | 328 |
| **Васильченко Ольга Анатольевна,** ХОРОВАЯ МУЗЫКА КАК ТРАНСЛЯЦИЯ ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА | 334 |
| **Abdumutalova Diyora Avazbek qizi, Nurmuxammatov Shoxruxbek Murod o`g`li,** YANGI O`ZBEKISTONNING O`Z TANLAGAN YO`LI | 340 |
| **Nilufar Mansurovna Sharipova, Qodirova Ozoda,** O'ZBEKISTONNING SOLIQ TIZIMIDAGI AKSIZ SOLIG'INING AHAMIYATI | 344 |
| **Sharipova Odinaxon Shavkatjon qizi,** MUSIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI | 349 |
| **Sharipov Marat,** UZBEKISTAN IS A SUPPORTER OF OPEN, SYSTEMATIC AND EFFECTIVE DIALOGUE AT THE "CENTRAL ASIA – EUROPEAN UNION" SUMMIT | 353 |
| **Раҳмонов Улуғбек Каримович,** ЎЗБЕК ХАЛҚ МУСИҚА САНЪАТИНИНГ XVI-XIX АСРЛАР РИВОЖИДАГИ ИЛҲОМБАХШ ОҲАНГЛАРИ | 357 |
| **Òrmonov G'olibjon Solijonovich, Xashimov Ravshan Raimjonovich,** YANGI ÒZBEKISTONDA MEHNAT QONUNCHILIGI BÒYICHA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR | 363 |
| **Yusupova Umida Amatbayevna ,** YASHIL MAKON -GO'ZAL MAKON | 367 |
| **Эгамбердиев Вохиджон Отабекович,** ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ВА ЮРИДИК ШАХСЛАРНИНГ МУРОЖААТЛАРИНИ КЎРИБ ЧИҚИШ ФАОЛИЯТИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ | 372 |
| **Hojiqulova Feruza Dona qizi,** MAMLAKATIMIZDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTRISH MASALALARI | 378 |
| **Lobarkhon Ruzmurodova,** THE REGULATORY LEGISLATIVE SYSTEM OF THE MASS MEDIA IN THE CASE OF UZBEKISTAN AND CHINA | 383 |
| **Г.Б.Жамалова ,** СОЛИҚ ТИЗИМИДА АХБОРОТ ТИЗИМЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ | 386 |
| **Jiyanova Shohidaxon Mahsumovna, Qayumova Dıldorahon Shokirovna,** O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MEHNAT QONUNCHILIGIDAGI YANGI NORMALARNING AHAMIYATI | 393 |
| **Z.X.Oxunova,** APELLYATSIYA INSTANSIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI | 397 |
| **Usmonova Odina Habibovna, Abdurahimova Mohira Numonjonovna,** ÒZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASIDA JAMIYAT, DAVLAT VA HUQUQ MASALALARI | 405 |
| **Teshaboyev Alixoja Ibragimovich,** GLOBALLASHUVNING MILLIY MA'NAVIYAT BILAN O'ZARO MUNOSABATLARI | 409 |
| **Qurbanbaeva Aytgul Uralbaevna,** ÓZBEKSTANDA INSAN HUQIQLARI BOYINSHA MILLIY INSTITUTLAR SISTEMASI | 415 |
| **Ubadullayev Ilxomjon Raxmatovich, Axmedova Nilufar Avazbekovna,** BUGUNGI KUN SUD-HUQUQ ISLOHOTLARI | 421 |
| **Oxunova Zilolaxon Xasanovna, Karachayeva Muhabbat Muhammadovna,** APELLYATSIYA INSTANSIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI | 425 |

**International Scientific Journal**
**Science and Innovation Series C**
**Volume 1 Issue 7**

**Fan va innovatsiyalar**
**xalqaro ilmiy jurnali C seriyasi**
**2022 yil 7-soni**

**ISSN: 2181-3337**
**Impact Factor: 8.2**

Bosmaxonaga berildi: 14.11.2022. Bosishga ruxsat etildi: 15.11.2022.
“Times New Roman” garniturasi, Ofset bosma. Adadi: 100 dona.

“Science and innovation” MCHJ
Litsenziya №:038864 15.09.2022
Manzil: 100155, Toshkent shahri, Sergeli tumani, Quruvchi dahasi, 22/43.
Scientists.uz, info@scientists.uz, +998901259654